MAXFIYLIK SIYOSATI

«UyQuray» platformasi (uyquray.uz) · Tahrir 1.0 · 2026-yil 14-noyabr

1. Ma'lumotlar egasi va operatori

Shaxsga doir ma'lumotlarning egasi va operatori — "NEW BEST SERVIS ASS" MChJ, STIR 309847172, manzil: O'zbekiston, Samarqand viloyati, Payariq tumani, Qumchuq MFY, Istiqlol ko'chasi, 120-uy, direktor: Amonov G'ayratjon Xakimovich (keyingi o'rinlarda — "Ijrochi"). Ma'lumotlarga O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ishlov beriladi.

Ushbu siyosat uyquray.uz sayti, uning mobil versiyasi va Telegram botiga (birgalikda — "Platforma") tegishli va Ommaviy ofertaning ajralmas qismi hisoblanadi (oferta 16.1).

Murojaat uchun: elektron pochta newbest@umail.uz, telefon +998 99 572 28 96 (Dushanba–Juma, 9:00–18:00), "Aloqa" sahifasi yoki Telegram bot.

2. Rozilik va yosh chegarasi

Ma'lumotlaringizga ishlov berishga rozilikni ro'yxatdan o'tishda alohida belgi bilan berasiz; belgi qo'yilgan sana va vaqt saqlanadi (Qonunning 21-moddasi). Ofertani qabul qilish belgisi bundan alohida.

Ayrim ma'lumotlar faqat siz alohida rozilik berganingizda ko'rsatiladi: vakansiyaga ariza yuborishda (firmaga) va kelishuvni tasdiqlashda (kelishuvning ikkinchi tomoniga).

Platformadan faqat 18 yoshga to'lgan shaxslar foydalanishi mumkin; 18 yoshdan kichik shaxslarning ma'lumotlari yig'ilmaydi.

3. Qanday ma'lumotlar yig'iladi va nima uchun

• Telefon raqami — kirish, hisobni himoya qilish va bog'lanish uchun.

• Parol — kirish uchun; parolning o'zi saqlanmaydi, faqat undan olingan qaytarib bo'lmaydigan iz (scrypt) saqlanadi.

• Ism, rollar, viloyat va tuman, til — profil, e'lonlarni hudud bo'yicha ko'rsatish va tomonlarni bog'lash uchun.

• Tug'ilgan sana — 18 yoshni tekshirish, JSHSHIR to'g'riligini tekshirish (JSHSHIRda tug'ilgan sana bor), shuningdek siz rozilik berganda vakansiya beruvchi firmaga va kelishuvning ikkinchi tomoniga ko'rsatish uchun.

• JSHSHIR — bir kishi faqat bitta hisob ochishi, kelishuv tomonlarini aniqlash, nizolarni hal qilish va firibgarlikning oldini olish uchun. U ikki ko'rinishda saqlanadi: (1) AES-256 bilan shifrlangan holda — uni faqat Ijrochi administratori ochib ko'ra oladi; (2) takroriy hisobni aniqlash uchun alohida, qaytarib bo'lmaydigan iz (HMAC) ko'rinishida. Boshqa foydalanuvchiga faqat kelishuvning ikkala tomoni uni tasdiqlab, alohida rozilik bergandan keyin — o'sha kelishuvning ikkinchi tomoniga ko'rsatiladi; firmalarga ko'rsatilmaydi.

• Qurilish firmalari uchun: firma nomi, STIR, hisob raqami, bank MFO va kadrlar telefoni — firmani aniqlash va vakansiyalarda ko'rsatish (nom va telefon) uchun.

• Usta kartasining raqami va egasining ismi — to'g'ridan-to'g'ri to'lov uchun kelishuvda ko'rsatish maqsadida; raqam AES-256 bilan shifrlangan holda saqlanadi. Amal qilish muddati, CVV va SMS kodlar so'ralmaydi va saqlanmaydi.

• Siz joylagan e'lonlar, takliflar, sharhlar, portfolio, loyihalar, firma va mahsulot ma'lumotlari, qurilish kabineti yozuvlari va yuklangan fayllar — Platforma xizmatlarini ko'rsatish uchun.

• Chat xabarlari, rasmlar va ovozli xabarlar — suhbatdoshingizga yetkazish uchun.

• Kunlik ish joyining aniq koordinatalari va telefon joylashuvi — yaqin ishlarni ko'rsatish uchun; telefon joylashuvi faqat siz tugmani bosganingizda yoki botga lokatsiya yuborganingizda bir marta olinadi.

• Kirish kodini so'ragan qurilmaning IP manzili — SMS suiiste'molidan himoya uchun.

• To'lovlar tarixi, ulangan Telegram chat raqami, bildirishnoma obunasi, rozilik va aksept vaqtlari, saytning ishlashi uchun zarur cookie fayllari (kirish, til, hudud).

Yuklangan rasm va ovozli xabarlar shaxsni aniqlash maqsadida (yuzni tanish, ovozni taqqoslash) ishlatilmaydi; biometrik va genetik ma'lumotlar yig'ilmaydi. Pasport ma'lumotlari va nusxalari so'ralmaydi.

4. Kim ko'radi

Ismingiz, reytingingiz va e'lonlaringiz saytda ochiq ko'rinadi. Telefon raqami boshqa tomonga faqat ish uchun tanlanganda, vakansiyaga ariza berganingizda yoki siz o'zingiz ochiq ko'rsatgan joyda (masalan, firma sahifasi) ko'rinadi.

Vakansiyaga ariza: ism, telefon raqami, tug'ilgan sana, viloyat va tuman hamda ariza matni faqat shu vakansiyani joylagan firmaga, har bir ariza yuborishda alohida rozilik belgisi bilan ko'rinadi. Firma nomzodni "ishga olindi" yoki "rad etildi" deb belgilashi mumkin.

Kelishuv: ikki tomonning ism, tug'ilgan sana, JSHSHIR, telefon raqami va hududi bir-biriga faqat ikkalasi ham kelishuvni tasdiqlab, alohida rozilik bergandan keyin ko'rinadi. Usta kartasi buyurtmachiga faqat kelishuv tasdiqlangach ko'rinadi.

Kunlik ish joyining aniq koordinatalari faqat e'lon beruvchi, administrator va "Boraman" degan ishchilarga ko'rinadi. Kunlik ishdan keyingi baholar va izohlar ochiq ko'rinadi.

Chat faqat uning ishtirokchilariga ochiq. Nizo yoki shikoyat ko'rib chiqilganda zarur ma'lumotlarni Ijrochi administratori ko'rishi mumkin.

Ma'lumotlar reklama maqsadida sotilmaydi va uchinchi shaxslarga berilmaydi, quyidagi 5-bo'limda ko'rsatilgan xizmatlar va qonunda nazarda tutilgan hollarda vakolatli organlar bundan mustasno.

5. Ma'lumotlar uzatiladigan xizmatlar

O'zbekistondagi xizmatlar (xizmatni ko'rsatish uchun zarur hajmda): SMS provayderi Eskiz — telefon raqami va kirish kodi; to'lov tizimlari Payme va Click — pullik xizmat to'lovi (karta ma'lumotlarini Ijrochi olmaydi).

Xorijiy xizmatlar — faqat siz ularni o'zingiz ixtiyoriy ravishda yoqqanda (Qonunning 15-moddasi): Telegram — botni ulaganingizda yoki "Telegram orqali kirish"dan foydalanganingizda (Telegram chat raqami, bildirishnoma sarlavhalari, e'lonlar matni; kirishda — Telegram'ga o'zingiz yuborgan telefon

raqami); brauzer push-xizmatlari (Google, Apple, Mozilla) — bildirishnomalarni yoqqaningizda (bildirishnoma sarlavhasi). Bildirishnomalarda ism, telefon raqami, JSHSHIR, manzil va chat xabarlari matni yuborilmaydi. Bu xizmatlarni istalgan vaqtda profilda o'chirishingiz mumkin.

Ommaviy Telegram kanalida e'lon sarlavhasi, hudud, narx va saytga havola chiqadi; telefon raqami va shaxsiy ma'lumotlar chiqmaydi.

6. Saqlash joyi va himoya

Platforma ma'lumotlari, shu jumladan zaxira nusxalari, O'zbekiston Respublikasi hududidagi serverlarda saqlanadi.

JSHSHIR va karta raqami shifrlangan, parol esa qaytarib bo'lmaydigan iz ko'rinishida saqlanadi. Saytga ulanish HTTPS orqali shifrlanadi. Ma'lumotlarga faqat vakolatli administrator kiradi; uning bloklash, o'chirish va boshqa harakatlari jurnalga yoziladi.

7. Saqlash muddatlari

- Profil ma'lumotlari — hisob mavjud bo'lgan davrda.
- Hisobni o'chirish so'ralganda — so'rov olingan kundan boshlab 30 kun ichida ism, telefon raqami, JSHSHIR, tug'ilgan sana, rekvizitlar va karta raqami o'chiriladi, e'lonlar yashiriladi. Zaxira nusxalardan ular keyingi 14 kun ichida yo'qoladi.
- Kelishuv va to'lov yozuvlari — qonunchilikda (shu jumladan buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilikda) belgilangan muddat davomida, hisob o'chirilgandan keyin ham shaxsni aniqlamaydigan ko'rinishda saqlanadi.
- Chat xabarlari — suhbatdoshingiz uchun saqlanib qoladi; hisob o'chirilganda ismingiz olib tashlanadi.
- Kirish kodlari va ularni so'ragan IP manzillar — 90 kun.
- Kirish seanslari — 30 kun (yoki chiqqaningizda darhol).
- Kunlik ish joyining aniq koordinatalari — ish tugaganidan keyin 30 kun.
- Botga yuborilgan ovozli xabarlar hisobi (faqat vaqti va davomiyligi, ovozning o'zi saqlanmaydi) — 90 kun.

8. Huquqlaringiz

Siz o'zingiz haqingizdagi ma'lumotlarni bilish, ularni tuzattirish, rozilikni qaytarib olish va ma'lumotlarni o'chirishni talab qilish huquqiga egasiz (Konstitutsiyaning 31-moddasi va "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun). Buning uchun 1-bo'limda ko'rsatilgan aloqa vositalari orqali murojaat qiling; murojaat 15 kun ichida ko'rib chiqiladi.

Rozilikni qaytarib olish Platformadan keyingi foydalanishni imkonsiz qilishi mumkin (masalan, JSHSHIRsiz hisob ishlamaydi); bunda hisob 7-bo'limdagi tartibda o'chiriladi.

Ma'lumotlaringizga noqonuniy ishlov berilgan deb hisoblasangiz, shaxsga doir ma'lumotlar sohasidagi vakolatli davlat organiga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga egasiz.

9. O'zgarishlar

Siyosatning yangi tahriri kuchga kirishidan kamida 10 kun oldin saytda e'lon qilinadi va foydalanuvchilarga saytdagi bildirishnoma hamda ulangan Telegram bot orqali xabar qilinadi (oferta 20.1). Yangi tahrir qonunda belgilangan huquqlaringizni kamaytira olmaydi.